

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA BO'LGAN MUNOSABATINI SHAKLLANTIRUVCHI METODLARI

Gulhayo Umarova Murodiljonovna
Chirchiq davlat pedagogika univversiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi
gulhayoumarova03@gmail.com

Norbutayeva Dilfuza Abdubakir qizi
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich talasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola maktab yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish vazifasini mukohama qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur vazifani hal qilishda metodlar qanchalik muhim ekanligi qator tajriba va ma'lumotlar asosida mulohaza va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: aqliy rivojlantirish, kichik maktab yoshi, o'qish, og'zagi yozma, malaka va ko'nikma, munozaro, ko'nikma.

ANNOTATSIYA

This article discusses the task of getting school-age children interested in reading, how important are the methods of solving the mask task in the winter.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning rivojlanishi va shakllanish davrlari va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, iste'dodli yoshlarni tatbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan ta'lim jarayonini mukamallashtirmay jamiyat talab etayotgan unib o'sayotgan maktab yoshlarini o'qishga qiziqitishda metodlarsiz bunga erishib bulmaydi. Har bir jamiyatda imkoniyati salohiyatli va kan o'zlashtitishi past bo'lgan bolalarni o'qitishning an'nalari va ilmiy asoslangan yondashuvlarni o'z ichiga olgan maxsus ta'lim maydoni mavjud. Rivojlanishdagi qoloqlik bolaning jamiyatdan "ajralib qolishiga" olib keladi. Buni o'quv jarayonida maxsus usul va metodlardan foydalanishni ko'zda tutadigan maxsus tashkil etilgan ta'lim yordamida bartaraf etish mumkun.

ADABIYODLAR TAHLILI METODOLOGIYA

Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta'lim-tarbiya faoliyatisiz amalga oshirib bo'maydi. Aqliy taqaviyyot va ta'lim –tarbiya, bir-biriga

<https://conferencea.org>

chambarchas bog'liq faoliyatidir. Ta'lim jarayonida o'quvchi bilan birga o'qituvchi ham faollik ko'rsatmasa amalga oshirilayotgan tadbirlar ko'zlangan natijani bermaydi. Kichik yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv jarayoni boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Bola maktabga borishi bilan vaqt utgan sayin, har kuni maktabga boorish, maktab qoidalariga roiya qilish va oila a'zolarining unga bulgan munosabatini, mansabini his qila boshlaydi. Maktab yoshdagi bolani o'qishga qiziqtirishda nima uchun mukofatlar bilan rag'batlantirish ish bermaydi. Bunda bolani o'zi qiziqadigan usul va o'yinlardan foydalanish mumkun.



- bunda har xil motivatsiyani tanlasak bo'ladi.
- Ichki motivatsiya haqida kamdan-kam bosh qotiramiz . Bizning samimiy xohish-istaklarimiz, holatimizni tushuntirish uchun birgina so'z yetarli buladi "istayman" . Bolarga o'zlari yoqtiradigan guruhlar va o'zlari yoqdiradigan qo'shiqchilarini tinglashini istaydi, o'z qo'llari bilan narsa-buyimlar yasashni hohlashadi yoki sarguzasht ertaklar yoki ramonlar o'qishni va o'z qahramonlari urnida bulishini hohlashadi, chunki ularga shunday qilish yoqadi.
- tashqi motivatsiya ham foyda berishi, cho'ntak pullaridan tortib, to maktabdagi baholargacha. Buni bir gap bilan izohlash mumkin. "Mana bunday qilsang, buni qo'ga kiritsang buladi".
- psixolog Alfi Kon "Mukofat bilan jazalosh " kitobida nafaqat ota-onalarni, balki o'qituvchilarni ham turli imtiyozlarni qo'llashdan ogohlantiradi. Ba'zi ota-onalar yaxshi farzandlarini yaxshi o'qishi uchun hayvohot bog'iga olib borishni va'da qilishda, qoshqalar qimmatbaho buyimlarni xarid qilishadi va ko'p hollarda pul berishadi. Muammo shunda buladiki, buusullar ham ko'p hollarda ish bermaydi. Va'da qilingan buyimlarga erisha olmasa, yaqinlaridan xafa bo'lishadi. O'qituvchlar ko'rinishlaridan oliyjanob usullardan ishtiyoqni oshirishga harakat qiladilar.

<https://conferencea.org>

- turli maqollar (oyning eng yaxshi o'quvchisi) joriy qilishadi, yaxshi o'qiydiganlar uchun imtiyozlar yaratishadi. Ko'pincha shunday buladi oyning eng yaxshi o'quvchisi bir o'quvchi buladi, imtiyozlar esa odatda tarkibi o'garmaydigan o'quvchilar doirasiga beriladi. Qolgan o'quvchilar esa o'zlarini omadsizdek his qilishadi.

- biz nafaqat kuchli pedagog, balki kuchli psixolog ham bo'lganimizda barcha o'quvchilar diqqatini o'zimizga qarata olamiz.

- agar o'quvchi darsni tinglashdan manfaatdor emasligini aytsa yoki dars pay tuning chalg'iyotganini sezsangiz, ushbu usullardan foydalaning

- siz o'quvchin qiziqtirish uchun pauza qilishingiz kerka, keyin mavzuni davon ettiring tafsiya etiladi.

bunda tez-tez takrorlash kerka, lekin haddan tashqari oshirish yubormang.

tan olish kerak, maktab ko'ngilochar muassasa emas. Bolalar bog'chasidan farqli ravishda bu yerda bolani ovqatni oxirigacha yeb qo'yganligi yoki uxlagani uchun maqtashmaydi ham. Bolalar maktabga bilim olish uchun boradi va bu jarayon ko'chada o'ynash yoki multfilm tomosha qilish kabi maroqli emas.

Agar farzandingiz o'qishni istamasligini ma'lum qilsa, buning sabablarini aniqlab, muammo yechimini topishga harakat qilishingiz lozim. Axir bola uchun hechnarsaning qizig'i bo'lmasligi mumkin emas. Uning maktabdan tashqari biror qiziqarli mashg'ulotini aniqlang va uni maktab fanlari bilan bog'lang.



Masalan, o'g'il bola kompyuter o'yinlariga qiziqsa, uni dasturlashga qiziqtirish, modaga qiziqqan qizlarni esa o'z "modalar jurnali"ni yaratishga qiziqtirish mumkin. Bu orqali qizlarda tasviriy san'atga, qolaversa, savodxonlikka bo'lgan qiziqishni oshirish mumkin. Axir jurnallarda bexato yozish talab etiladi. O'qishni istamaslikning yana bir sababi ma'lumotlarni o'zlashtirishdagi qiyinchilik bo'lishi mumkin. Agar bola darslarda gap nima haqida borayotganligini tushunmasa, u zerikish, noqulaylikni his qiladi. Shu sababdan ma'lum bir

<https://conferencea.org>

fanni ham yoqtirmay qoladi! Bu vaziyatni uning o'qituvchisi bilan muhokama qilib ko'ring. Qo'shimcha mashg'ulotlar uchun repetitor xizmatidan foydalanishingiz ham mumkin. O'quv jarayoniga qiziqishning yo'qolishiga buning aksi — bilimlarning juda oson o'zlashtirilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, birinchi sinfga o'qishni bilib borgan bolalar tengdoshlarining harf o'rganishidan zerikishi mumkin. U qiziqishini butunlay yo'qotmasligi uchun turli foydali mashg'ulotlar, klub va to'garaklarga yo'naltirish lozim.

Asosiy qoidaga amal qiling — hech qachon bolani kamsitmang! Agar bola o'qishni istamasa bu uni dangasa, bilmasvoy kabi so'zlar bilan kamsitishga asos bo'la olmaydi. Bolaning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlabgina o'qishga bo'lgan qiziqishini qaytarish mumkin.

MUHOKAMA

TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning: a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; b) o'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan ustozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalaniladi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi. Metodlarni har qanday muammoni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Ta'lim metodlari

- so'z oqrali ifodalangan metod
- ko'rgazmali metod
- amaliy metod

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi: - o'qitishning og'zaki metodi; - o'qitishning amaliy ishlar metodi; - o'qitishning ko'rgazmali metodi; - muammoli evristik modellashtirish metodi; o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi; o'qitishning induktiv va deduktiv metodi; - o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish metodi; - o'qitishda nazorat va o'z-o'zining nazorat qilish metodi. - Metodlar o'z

<https://conferencea.org>

navbatida guruhlaiga bo'linadi: O'quv informasiyasini so'z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladi? O'qitishning og'zaki metodlari uch turga:

a) o'qituvchining hikoyasi;

b) suhbat;

v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llansa, yuqori sinflarda ma'ruza usuli ko'p qo'llaniladi. Taiim mazmuni notanish boisa hikoya va ma'ruza usullari qoianiladi. Taiim mazmuni o'quvchiga qisman tanish boisa suhbat usuli qoilaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab taiim tizimida eng ko'p qoilanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qoilaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladir, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi. Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga ega. Pedagogika ham boshqa fanlar kabi awalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavur qilish qiyin. Hozirgi kunda Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi. Mualliflar tomonidan tayyorlangan darslikni yaratishdan maqsad: fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish; talabaning bilim olishida optimal usullardan foydalanish; ilg'or pedagogik texnologiya elementlarini darsda tadbiiq qilish va h.k. Darslik vazifalari: o'rganilayotgan mavzularni to'la idrok qilish uchun zamin yaratish; - o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni hosil qilish; pedagogika faniga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni hayotda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lish; - talabalarning pedagogik texnologiyalar, ta'lim vositalari: haqidagi boshqa bilimlar bilan qurollantirishni ta'minlash; www.ziyouz.com kutubxonasi - muammoli pedagogik vaziyatlarning yechimini talaba tomonidan mustaqil ravishda topishga imkoniyat yaratish. Insonshunoslik fanida inson-jamiyat, jamiyat-inson shaklida o'zaro ta'sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to'g'ri, ham teskari aloqani o'rnatishi joiz. Abdulla Avloniy o'z davrida bashorat qilganidek: "Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlama o'rganishi zarur". Uzlaksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari sifatida ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish, majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limiga o'tilishini ta'minlash, ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish, ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabilar belgilandi. Tarbiyada rag'batlantirish usulidan qanday foydalaniladi, uning qanday turlari va ahamiyati bor, degan savol ko'pchilikni qiziqtirsa kerak. O'quvchi, bolalarning har biri o'sib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini oladi, uni quvontiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga undaydi. Rag'batlantirishning quyidagi turlari mavjud:

- o'quvchining kuchi etadigan mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; maqtash: (ota-ona, jamoa oldida);
- esdalik sovg'a berish; maqtov yorlig'i berish;
- teleko'rsatuvlarda maqtash; hurmat taxtasiga rasmini qo'yish;
- qo'llab-quvvatlash; ma'muriyat va jamoaning minnatdorchiligi.

XULOSA

Kitobxon - o'quvchi oilada o'rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik, qadriyatlarni, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlari yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda yosh kitobxon ko'p fazilatlarni o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, ma'naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikir ish yuritish ko'zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi. Biz bu metodlarni qo'llar ekanmiz, darsni ham o'yin tarzida olib borishimiz o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini uyg'otamiz. Davlat Ta'lim tizimida ham yildan- yilga ta'limga oid bir qancha o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Masalan, ta'lim oluvchilar uchun shart - sharoitlar, smart darsliklar, dars mavzusi yuzasidan audio videoroliklar, ishlab chiqilmoqda, bolalarga ushbu mavzuni kengroq yoritib berish uchun yangi texnologiyalar, usullar joriy etilmoqda.

REFERENCES

1. Umarova Gulhayo Murodiljonovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210-224.
2. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Zulayho Jabborova Mansur qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish // "Ustozlar uchun" fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 8-12 b.
3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, D.O.Ximmataliyev. O'smirlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning usullari va vositalari // "Ustozlar uchun" fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 13-23 b.
4. Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish // "Pedagogs" international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10.